

## IZZAT SULTON NAZARYOTCHI OLIM SIFATIDA

Fargʻona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3 – bosqich talabasi

**Kamolova Mohigul**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada oʻzbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim oʻrin tutgan yirik adabiyotshunos va munaqqid Izzat Sultonning ilmiy faoliyati yoritildi. Unda olimning adabiyot nazariyasi, realizm masalalari, adib shaxsiyati va badiiy tafakkur haqidagi ilmiy qarashlari, shuningdek, XX asr oʻzbek adabiy jarayonini tahlil qilishdagi xizmatlari ochib berildi. Izzat Sultonning tanqidchilik uslubidagi ilmiylik, tizimlilik va dalillarga tayanish prinsiplari alohida tahlil qilinadi. Maqola olimning oʻzbek adabiy tanqidchiligi rivojiga qoʻshgan hissasini ilmiy asosda yoritadi.

**Kalit soʻzlar:** Izzat Sulton, oʻzbek adabiy tanqidi, adabiyot nazariyasi, realizm, badiiy metod, adib shaxsiyati, ilmiy tahlil, adabiy jarayon.

XX asr oʻzbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligida yirik olimlar orasida Izzat Sulton alohida oʻrin egallaydi. U fan, adabiyot va ijtimoiy-maʼnaviy jarayonlarga faol taʼsir koʻrsatgan, ijodi keng qamrovli, oʻzbek tanqidchiligida yangi ilmiy tamoyillarni shakllantirgan munaqqiddir. Izzat Sulton turli adabiy masalalar boʻyicha fundamental ilmiy qarashlarni ilgari surib, oʻzbek tanqidiy tafakkuri rivojiga katta hissa qoʻshgan.

Izzat Sultonning hayoti va ilmiy shakllanishi.

Izzat Sulton XX asr oʻzbek adabiyotining nazariy asoslarini chuqur oʻrgangan, adabiy jarayonni ilmiy jihatdan baholashga katta eʼtibor bergan adabiyotshunos sifatida tanilgan. U oʻzining ilmiy faoliyatida oʻzbek adabiy merosi, realizm masalalari, adabiy metod, adib shaxsiyati va badiiy tafakkur evolyutsiyasi kabi mavzularni keng tahlil qilgan. Izzat Sulton ijodi oʻzbek adabiyotshunosligida ilmiylik, nazariy puxtalik, adabiy jarayonni umumiy qonuniyatlar asosida tushuntirishga intilish bilan ajralib turadi. U tanqidchilikni faqat baholash emas, balki badiiy jarayonning ichki mohiyatini ochib beradigan ilmiy tizim sifatida rivojlantirgan.

Izzat Sultonning ijodiy faoliyati, asosan, 30-yillarda boshlandi. Uning 30-yillarning oxirlarida “Adabiyot nazariyasi” o‘quv qo‘llanmasini yaratishi o‘sha davr adabiy jamoatchiligida katta voqea bo‘ldi. Lekin «Adabiyot nazariyasi» yaratilguncha 30-yillar mobaynida yosh tanqidchi muayyan tajriba yo‘lim bosib o‘tdi. Uning dastlabki qiziqishlariyoq rang-barang bo‘lib, musiqa masalalariga, roman janri muammolariga, dramaturgiyaning o‘ziga xosliklariga, tanqidchilikning maqsad va vazifalariga qaratildi. Munaqqid shu vaqtda o‘z musiqamizni tuzish yo‘lida, M.Sholoxovning “Ochilgan qo‘riq” romaniga bag‘ishlangan «Turmush darsligi ustida», “20 yil burungi Gamlet”, “Chexov hikoyachiligi» kabi maqolalarini yozdi. 1940- yilda u o‘zining “o‘zbek tanqidchiligi haqida» maqolasini e‘lon qildi. Unda davr muhrini ko‘rsatuvchi cheklanishlar yo‘q emas. Lekin bundan qat’i nazar undagi ilgari surilgan qator chuqur ilmiy-nazariy fikrlar bu sohaning jiddiy va teran bir mutaxassisi yetilib kelayotganini namoyon etadi.

Izzat Sultonov uch yo‘nalishda: zamonaviy adabiyot muammolari, mumtoz adabiyot tarixi hamda adabiyot nazariyasi masalalari xususida izlanishlar olib bordi. Uning faoliyatida Alisher Navoiy siymosi va ijodi alohida o‘rin tutadi. Olimning bu yo‘nalishdagi ilk maqolasi «Mir Alisher Navoiy» (1938) tezda adabiy jamoatchilik e‘tiboriga tushdi. Shu yili «Rustaveli va Navoiy» maqolasi vujudga keldi. «Navoiy tadqiqotchilari» (1941) degan maqola yozdi. Deyarli o‘ttiz yildan so‘ng yaratiladigan «Navoiyning qalb daftari» hamda undan avval yaratilgan «Alisher Navoiy» dramasi boshlang‘ich nuqtalari ana shu izlanishlarda yotadi.

Yetuk adabiyotshunos va tanqidchi. «Adabiyot nazariyasi» (1939) kitobi O‘zbekiston madaniy-adabiy hayotida ulkan voqea bo‘ldi. Darslik 1940-yilda eng yaxshi ilmiy va badiiy asarlar uchun o‘tkazilgan tanlovda birinchi mukofot bilan taqdirlandi. Asar ko‘p yillar mobaynida faqat o‘rta maktab uchungina emas, respublika oliy o‘quv yurtlarida ham asosiy darslik vazifasini bajardi. Izzat Sulton o‘zbek adabiyotshunosligida A.Sa‘diy va Fitratdan keyin adabiyot nazariyasidan darslik yaratgan uchinchi ustoz sanaladi. Olim shuhrati respublikamiz tashqarisida ham keng yoyildi.

Izzat Sulton o‘zbek adabiy tanqidchiligida yangi ijobiy ko‘tarilishlar yuz berayotganligini birinchilardan bo‘lib qayd etgan munaqqiddir: «Adabiy tanqid badiiy

asarlar yaratish jarayonining ajralmas bir qismi, tanqidchi-yozuvchining hamkori va madadkoridir», deb yozgandi munaqqid. 1.Sulton adabiy-tanqidiy qarashlarida, izchil ijodiy izlanishlarida muammoli masalalami dadiilik bilan ko'tarib chiqishga harakat qiladi.

1.Sulton o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi shakllanishi va kamoloti jarayonining xilma-xil sohalari. turli muammolari bilan shug'ullandi. I. Sultonov ilmiy kashfiyotlaridan biri - ijodiy metod masalasidagi kuzatishlarida ko'zga tashlanadi. Uning 50-yillarning o'talarida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi ham ayni shu mavzuda edi. O'im «Realizmning zamonaviyligi» (1963) maqolasida 60-yillar adabiyotida yuz berayotgan rcalizmning chuqurlashuv jarayonlarni yoritishga intildi. Bu o'zbek adabiyotining shu vaqtlardan e'tiboran sotsiorealizmga, balki, umuman, rcalizm yo'liga borishga ham intilayotganini ta'kidlovchi dastlabki mulohazalardan biri edi.

## **XULOSA**

Izzat Sulton o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida ilmiy fikrni yuksak bosqichga ko'targan, adabiyot nazariyasining rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk olimdir. Uning realizm va badiiy metod masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari, adib shaxsiyati va ijod jarayoni haqidagi ilmiy qarashlari adabiyotshunoslik uchun asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Izzat Sulton adabiy jarayonni tahlil qilishda ilmiy dalillarga suyanishi, badiiy tafakkur rivojini chuqur anglashga intilishi bilan ajralib turadi. Olimning ilmiy merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham dolzarbligini saqlab, o'zbek tanqidchilik maktabining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nazarov B., Rasulov A. va boshqa. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.
3. Sulton I. Realizm va san'at tabiati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

4. Yoʻldoshev Q. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2004.
5. Qosimov B. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti.